

GLOBALIZATSIYA JARAYONIDA TIL KOMPETENSIYASINING TRANSFORMATSIYASI: O'ZLASHMA SO'ZLAR VA INTERNET QISQARTMALARI MISOLIDA

Normatova Sarvinoz Axmad qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti uchinchi bosqich talabasi

Email sarvinoznormatova89@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada globalizatsiya davrida zamonaviy tilshunoslik, xususan, til kompetensiyasining o'zgarishlari, shu bilan birgalikda, yangicha yo'nalishlari tahlil qilinadi. Xorijdan kirib kelgan so'zlar va ularning muqobil variantlari misolidagi so'zlar keng tahlil qilingan holda o'rganiladi.

Kalit so'zlar: til ,globalizatsiya jarayoni, til kompetensiyasi, ijtimoiy tarmoqlar ,qisqartmalar, atama

Abstract. This article analyzes the changes in modern linguistics, in particular, language competence, as well as new directions, in the era of globalization. Words imported from abroad and their alternative versions are studied with extensive analysis

Keywords: language, the process of globalization, linguistic competence, social networks, abbreviations, term

Аннотация. В данной статье анализируются изменения в современной лингвистике, в частности, в языковой компетенции, а также новые направления в эпоху глобализации. Слова, заимствованные из-за рубежа, и их альтернативные варианты изучаются с помощью всестороннего анализа

Ключевые слова: язык, процесс глобализации, языковая компетенция, социальные сети, сокращения, термин

Kirish. Til nafaqat aloqa vositasi balki u inson tabiatini anglashning o'ziga xos kalitidir, millat qadriyatning saqlash vositasidir. Til madaniy-tarixiy tajribani uzatish vositasidir va shuning uchun u tilda so'zlashuvchilarni madaniy an'alarini aniqlaydi.[1,171-bet]Hozirgi zamonaviy davrda insonlar va tur xil millat madaniyatlari, iqtisodiyoti, siyosati, axborot jihatidan o'zaro bog'lanib, bir-biriga yanada yaqinlashib bormoqda. Aynan shu globalizatsiya jarayoni tufayli tilshunoslik oldiga yangidan-yangi vazifalar qo'yilib bormoqda.

Asosiy qism. Hozirgi raqamli davrda til kompetensiyasiga ham katta e'tibor ortib bormoqda. Til kompetensiyasi — bu insonning tilni to'liq anglash, undan to'g'ri va samarali foydalanish, muloqot jarayonida grammatik, leksik, fonetik va madaniy jihatlarni uyg'un qo'llash qobiliyatidir.[2,85-bet] Shu sababdan insonlar til kompetensiyasiga amal qilgan holda tilni rivojlantirish, bundan tashqari aniq va samarali muloqotni ta'minlash, fikrlarni to'g'ri yetkazish va albatta ijtimoiy yoki kasbiy muvaffaqiyatga erishishda o'z tas'irini ko'rsatadi. Lekin hozirgi kunda keng miqyosda foydalanilayotgan ijtimoiy tarmoqlar ta'sirida ko'plab so'zlar qisqartirishlar orqali yozilishi, grammatik qoidalarga e'tibor qaratilmaslik kabi bir qator raqamli texnologiyalar asri muammolari ko'zga tashlanmoqda.

Misol uchun:

O 'zbek tilida		Ingliz tilida		Koreys tilida	
qisqartma	to'g'ri shakl	qisqartma	to'g'ri shakli	qisqartma	to'g'ri shakli
Nma? Ho'w	Nima? Ho'sh	Pls flw	Please follow	ㄱㄱ ㅇㅈ	가자 인정

Rivojlanish bilan bir qatorda, savdo, ilm-fan, texnologiya yoki madaniyat orqali kirib kelgan so'zlar yani chetdan kirib kelgan so'zlarning ma'nosiga mos bo'lgan o'z tilidagi so'zlar orqali qo'llash kabi ma'suliyatli vazifa ham til kompetensiyasining muhim mezonini hisoblanadi. Bu borada mamlakatimizda ham keng ko'lamlil ishlar olib borilmoqda, misol qilib, O'zbekiston Respublikasi Atamalar komissiyasining ishchi kengashi – O'zbekiston Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti folklori instituti olimlari tomonidan xorijiy atamalarni o'zbekcha muqobillariga almashtirish bo'yicha jamoatchilik yuborgan takliflar ko'rib chiqilib ommaga taqdim etildi.[3] Albatta, bu kabi chetdan kirib kelgan so'zlarni o'zbek tiliga mos, muqobil varianti asosida ishlatish va uni keng ommaga taqdim etish tilni boyitish va uni milliyligini saqlab qolishga yordam beradi.

Atama nomi	Yangi so 'z va atama qo'llaniladigan manba	Ma'nosi	O 'zbek tilida ifodalovchi so 'z	Rasmiy iste'molga kiritish bo 'yicha taklif	Qaysi vazirlik(idora) tomonidan taklif qilingan
Банкет	Mehmonlar turli taomlar bilan boy banketdan bahramand bo'lishdi.	Banket (fr. Banquet) – o'tkir yoki shirin taom; lot. "banca", ya'ni "stol" so'zidan olingan.	Rasmiy mehmondorchilik	Ziyofat (terminologik tushunchani ifodalay oladi)	Jamoatchilik taklifi

Xulosa. Tilni rivojlantirish, uning meyorlariga amal qilgan holda foydalanish har bir shaxsning vazifasi hisoblanib, shu tufayli til kompetensiyasi meyorlariga amal qilib undan foydalanish, unga yangilik kiritish, rivojlantirish zarur va shartdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nasrullayev O Zamonaviy tilshunoslikning dolzarb muammolari // Volume 4 Issue7 special issue (EJAR)
2. Rahmonova SH.S. Til kompetensiyasini rivojlantirishda sun'iy intellektning ahamiyati // International scientific online conference 85-b.

3. https://t.me/Fanlar_akademiyasi/26191
4. <https://zamin.uz/ru/tehnologii/194581-uchenyje-uzbekistana-sozdali-legkiy-material-dlya-filtracii-vozduha-i-vody.html>
5. <http://www.academy.uz/>
6. David Crystal Language and the internet // Cambridge University Press 2010